

**KATTA FARG‘ONA KANALI QURILISHI TARIXIGA NAZAR
(NOYOB ARXIV HUJJATLARI ASOSIDA)**

S. Xusanov,
o‘qituvchi, Farg‘ona davlat universiteti,
O‘zbekiston, Farg‘ona sh.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada katta Farg‘ona kanali qurilishi tarixi noyob arxiv hujjatlari asosida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: tarix, Farg‘ona kanali, hashar, suv, obodonlashtirish.

KIRISH

Katta Farg‘ona kanali qurilishini xashar yo‘li bilan amalga oshirish g‘oyasi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan emas. G‘oyani amalga oshirish mashaqqatli mehnat talab qilar, shov-shuv bo‘lishi tabiiy edi. Loyihani amalga oshirish ulkan moddiy mablag‘, fidoyi mehnat talab etardi. Farg‘ona vodiysi suv manbalaridan to‘laonli foydalanish orzusining ruyobi loyihalardagina emas balki, Farg‘ona dexqonining tafakkurida ham shakllanib bo‘lgan edi.

Pop tumani suv kamchil hududlardan biri 1938 yilning bahorida shu tuman qishloq xo‘jaligi zaxmatkashlari ixtiyoriy ravishda 9 kilometr uzunlikdagi Langar kanalini qazishadi, natijada 100 gektardan ziyodroq yangi yerlarni sug‘orish imkoni yaratildi.

ASOSIY QISM


1939 yilning boshlarida mirob Usmonjon Rasulov Oloy tog‘ tizmalaridan suv ichuvchi Isfayramsoy suvidan unga yondosh oquvchi Shoximardonsoyiga o‘tkazish taklifi bilan chiqadi. Taklif ma‘qullanib, Farg‘onaliklar, Oltiariqliklar, Quvaliklar, Toshloqliklar tomonidan ham qo‘llab-quvvatlandi. 1939 yilning 10 mart sanasida to‘rt tumandan 14 ming dehqonlar va ko‘ngillilar bo‘lajak kanal trassasi tomon otlanihdi. Bahor faslining seryog‘in bo‘lishiga qaramay 17 kun ichida 32 km uzunlikdagi Log‘on kanalini qazishib, 338 ming kubometr tuproq ishlarini amalga oshirishdi.

1939 yilning 30 mart Log‘on kanalini ochilish marosimida «Log‘on kanali-bu, ulkan imkoniyatlardan amaliyotda foydalanish ibtidosi, xalq irodasi bilan suv inshootlari qurilishiga shiddat bahsh etishdir», — degan edi. Uzbekistonning o‘sha paytdagi rahbari Usmon Yusupov.

Markaziy Farg'onani Katta Farg'ona kanali qurilgunga qadar bo'lgan xolati*Farg'ona viloyati ijroiya komiteti"ning hujjatlarida (Fond-1124, Ro'yxat-2, Yig'majild-43)*

Xalqning ayniqsa, Qishloq aholisining taklifiga asoslanib 1939 yil 6 iyunda o'sha davrdagi sobiq O'zbekiston Kompartiyasi MK va O'zbekiston Ministrlar Sovetini qo'shma majlisida Katta Farg'ona kanali qurilishini boshlash maqsadida qaror qabul qilindi. (O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1939 yil 3-6 iyun kungi "Katta Farg'ona kanali qurilishi" haqidagi 896-son qarori qabul qilingan. (Fond-1124, Ro'yxat-2, Yig'majild-3))

Barcha partiya va Sovet raxbarlariga Katta Farg'ona kanali ahamiyati haqida joylarda xalq orasida tushuntirish ishlarini olib borish topshirildi. Zudlik bilan tashkiliy ishlar boshlanib ketdi.

**V.V.Пославский****A.N.Аскоченский****И.Д.Лебедев****И.Федодеев**

«Сазгипровод» loyiha-tadqiqot tresti jamoasi muhandislari I.D.Lebedev-loyiha bosh muxandisi, A.N.Askochenskiy-loyixalash bo'yicha bosh muxandis, V.V.Poslavskiy-gidroinshootlar qurilishi bosh muxandisi, I.F.Fedodeev-kanal qurilishi bosh muxandisi yetakchiligida Katta Farg'ona kanali loyihasini ishlab

chiqdi. I.K.Petrov boshchiligida A.P.Borisov, I.V.Strelchik, A.S.Gapeshin, F.Voronin va boshqalar tadqiqot ishlarini trassa o'rnini, aniqlab, belgilash ishlarini amalga oshirishdi. A.V.Bostanjoglo, V.M.Tolstulov, M.Ye.Korotkoe, A.S.Svetkov singari mutaxassislar tadqiqotlar o'tkazishdi. Katta Farg'ona kanalini loyihalash ishlariga muhandislardan V.N.Simakov (loyiha boshlig'i) T.I.Malinovskiy, F.D.Rusako, I.P.Yaroshlar ulkan ijodiy hissa qo'shdilar, V.F.Poyarkov, A.I.Tyumenev, T.O.Gankuzen, A.D.Kuznipova, A.V.Dunin-Brarkovskiy, E.E.Peplov, N.G.Brodinskiy, A.M.Qaxramonovlar Katta Farg'ona kanalining betakror qurilmasi loyixasini yaratdilar. (Farg'ona viloyati davlat arxivi saqlovidagi (Fond-1124, Ro'yxat-2, Yig'majild-43) kanal qazilishida ishtirok etgan fuqarolarning nomma-nom keltirilgan ro'yxatidan.)

Kanalning tashqi ko'rinishini arxitektorlar M.S.Bulatov, A.M.Boychenko, A.N.Zotov, L.G.Karash ishlab chiqishdi. Loyihaga binoan kanal trassasi ikki uchastkadan iborat edi: «Yuqori trakti Uchqo'rg'ondan boshlanib, janubga Kuyganyorgacha boradi. Norinni Qoradaryo va Tentaksoy bilan bog'laydi. Uzunligi 44 km. Suvning bir qismi sug'orishga sarflanadi, asosiy qismi Qoradaryo va Tentaksoyga tashlanadi. Kuyganyor tug'onidan g'arbga tomon kanalning quyi trakti 226 km uzunlikda, suvi Sirdaryoga deyarli yondosh holda vodiyni janubidan oqadi. Kanal atrofidagi sug'oriladigan yerlardan baland bo'lgani uchun undan suv olish qulay. Suv o'tkazish qobiliyati sekundiga 98 kubometr bo'lgan quyi trakt Qoradaryoning Kuyganyor to'g'onidan Tojikiston Respublikasi chegarasigacha bo'lgan qismini tashkil etadi. Farg'ona viloyatida tashkiliy ishlar komissiyasi tuzildi va qurilish boshlig'i qilib Teshaboy Mirzaev tayinlandi. (Farg'ona viloyati davlat arxivi saqlovidagi (Fond-1124, Ro'yxat-2, Yig'majild-43) kanal qazilishida ishtirok etgan fuqarolarning nomma-nom keltirilgan ro'yxatidan.)

Kanalda 48 ta yirik (Kuyganyor tug'oni shu jumladan) va 275 ta mayda gidrotexnik inshootlar, temiryul va avtotransport kupriklari, inspektor yullari, maishiy va xizmat binolari, aloqa vositalari, xususan, kanalni doimiy ishlatish, xizmatchilar mehnati va turmushi uchun zaruriy sharoitlar yaratish ko'zda tutildi.

Orzular ro'yobi





Usmon Yusupovning bashorati ruyobga chiqdi. 1939 yilning o'rtalariga kelib, Farg'ona vodiysida Norin va Qoradaryo o'zanlaridan sug'orishda keng foydalanish, muamosini xalq etish uchun hamma narsa tayyor edi. Loyiha tayyor. Xalq tayyor. 1939 yili avgust oyining boshida vodiyni tashabbuskor mexnatkashlari injener-texniklar bilan birgalikda bo'lajak kanal bo'yiga chiqdilar. Ommaviy xashar boshlandi. 45 kun deganda yer qazish ishlari tugallandi. Kanal uzunligi 270 kilometrga yetdi. 17,8 million kubometr tuproq ishlari bajarildi. 100 ming kolxozchi, 3000 injener-texnik, 1796 nafar kommunist, 50 ming komsomol a'zolari qatnashdi. 704 nafar meditsina xodimi, 1890 nafar san'atkor, 1072 nafar aloqachi, ko'plab yozuvchi, jurnalist, partiya, sovet xodimlari va boshqa kasbdagi mutaxassislar xizmat ko'rsatdi, kanalda vodiylar xalqi sinovdan o'tdi, g'olibligi tantana qildi.

1939 yilning 27 dekabrda Usmon Yusupov boshliq davlat komissiyasi kanalning "Yaxshi" baxolar bilan doimiy ishlatishga qabul qilinganligi xaqidagi xujjatga imzo chekishgan shu kuni nixoyatda ko'tarinki rux bilan katta xursandchilik bilan Kuyganyor to'g'onidan kanalga 10 m³/s suv ochilgan va 5 kundan keyin 31 dekabr kuni Tojikiston chegarasida 2 m³/s suv ko'ringan.

Kanal 60 ming gektardagi qo'riq va bo'z yerlari o'zlashtirish, 45 ming gektar maydonda suv ta'minotini yaxshilash imkoniyatini beradigan bo'ldi. 1940 yilda Farg'ona oblastida 23 ming gektar yangi yer o'zlashtirildi. Sirdaryoning yuqori kismida joylashgan tumanlardagi jamoa xo'jaliklari va davlat xo'jaliklari, ekin maydonlari suv bilan ta'minlandi. Qoradaryo suvi qo'shni Tojikiston Respublikasining Konibodom shahrigacha yetib, xo'jaliklarni suv bilan ta'minladi. Sekundiga 1200 m³/sek suv o'tkaza oladigan Farg'ona usulidagi Kuyganyor tug'oni qurildi, Norin daryosi betonlashtirildi hamda Kuyganyor to'g'onidan suv oluvchi Katta Farg'ona kanaliga 98 m³/sek suv o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lgan bosh inshoot taqsimlagich ishga tushdi. Umuman kanalda 42200 kubometr beton va temirbeton ishlari bajarildi. 25000 kubometr yog'och materiallari sarflandi. 1106 tonnalik metall konstruksiyalar o'rnatildi. 45 ta yirik, 275 ta kichik hajmli inshootlar ishga solindi. 101 joyda suv o'tkazish dyukerlari, 118 dona akveduklar, 6 ta temiryo'l va 7 ta ko'rkam ko'priklar qurildi. Kanal bo'ylarida 69 bino kad ko'tardi. Kanal chetlarini mustaxkamlash, ko'kalamzorlashtirish, bog'-rog'lar barpo qilishga kirishildi.

1939 yil 1-noyabr kuni Katta Farg'ona kanali boshqarmasi 1-sonli buyruq bilan tashkil etildi va birinchi rahbar etib I.Fedodeev tayinlandi.

XX asrning ulkan gidroinshoot namunalaridan biri bo'lgan Katta Farg'ona kanali qurilishi tarixi Farg'ona viloyati davlat arxivi saqlovidagi nodir hujjatlar asosida yoritildi.

Фарғона водийси суғориш тармоқлари ХАРИТАСИ

